

**SAMARALI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ABDULLA AVLONIY MA'NAVIY MEROSINI
O'RGANISH – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10673832>

Pardayeva K.U

JDPU Pedagogika ta'lifi nazariyasi kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Avloniy asarlarida yoshlarga tarbiya berish, ularda axloqiy fazilatlarni shakllantirish yo'llari interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar yordamida yoritilgan.

Kalit so'zlar: odob, an'ana, ilm, aql, sabr, toqat, sabot, matonat, fazilat

Аннотация. В данной статье освещаются способы воспитания молодежи и формирования у нее нравственных качеств с помощью интерактивных методов и инновационных технологий в творчестве Абдуллы Авлони.

Ключевые слова: этикет, традиция, знание, ум, терпение, терпимость, настойчивость, настойчивость, добродетель.

Annotation. In this article, the ways of educating young people and forming moral qualities in them with the help of interactive methods and innovative technologies are highlighted in the works of Abdulla Avloni.

Key words: etiquette, tradition, knowledge, mind, patience, tolerance, perseverance, perseverance, virtue.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldag'i PQ-4623-sonli «Pedagogika ta'lif sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorida kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishda quyidagi ustuvor yo'naliishlar muhim ahamiyat kasb etishi e'tirof etilgan, jumladan: talabalarning o'zida shakllangan pedagogik kasbga bo'lgan qiziqlishi va intilishi yuqori darajada bo'lgan ta'lif sub'ektlarini aniqlash va ularni ko'zlangan natija beradigan darajada tarbiyalash va tayyorlashning uzlusizligini ta'minlash; soha bo'yicha ta'lif, ilm-fan, iqtisodiyot va ishlab chiqarish bilan uyg'un bo'lismeni asoslash orqali ta'lif sifati va samaradorligini oshirish, ijtimoiy hayotda o'rniiga ega bo'lgan raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy nazariyaga yo'naltirilgan ilmiy va innovatsion faoliyatni samara beradigan tarzda tashkil etish; pedagog kadrlar buyurtmachilarini talab hamda ehtiyojlarini doimiy o'rganish, ular bilan muntazam ravishda interaktiv hamkorlikni rivojlantirish va bilimli va salohiyatli pedagog kadrlar tayyorlashning ilmiylik xususiyati mujassamlashgan istiqbolli rejalarini tuzish va mazkur rejalarini amalga oshirish; oliy pedagogik ta'limga raqamli texnologiyalarini joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta'lif texnologiyalarining fanlararo integratsiyasini ta'minlash, shuningdek, pedagog kadrlarning kasbiy qobiliyati, mahoratini izchil, tizim asosida rivojlantirib borish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish muhimdir.

Ta'kidlash joizki, hozirgi global mashhuv sharoitidagi dolzarb muammolardan biri ta'lif o'quv jarayonida samarali texnologiyalardan unumli foydalanish, jarayonini texnologiyalashtirish hamda ta'lif mazmuniga ajdodlar ma'naviy merosini singdirish bilan chambarchas bog'liq.

Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiya o'qitishga innovatsion yondashuv sifatida ta'lif shakllarini optimallashtirish, standartlashtirish, jarayonni ma'lum tizimga keltirish, ta'lif sub'ektlariga belgilangan maqsad asosida ta'sir ko'rsatish demakdir. Innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etiladigan ta'lifning samaradorligi bahs-munozaralar asosida olib borilishi, vaqtning tejalishi, mavzuning qisqa vaqt ichida tushuntirilishi, shuningdek, berilayotgan zamonaviy bilimlar asosida davr talablariga javob beradigan kadrlarning tayyorlanishidadir.

O'tmish tarixdan ma'lumki, har bir jamiyatning milliy manfaatlarini himoya qiluvchi, axloqiy-ma'naviy mezonnarni, ularning shaxsiy kamolotni targ'ib etuvchi o'z rahnamolari ma'rifat peshvolari bo'ladi. Jadid adabiyoti ijodkorlari o'zlarining yangi, zamonaviy bilim va tafakkurlariga tayanib, publisistika va badiiyatning turli janrlarida qalam tebratishgan. Ushbu ijtimoiy-ma'rifiy faoliyatning har bir namunasi o'z tadqiqotchilarini, ixlosmandlarini jalb qilib, muhim tadqiqotlarga ob'ekt bo'lib kelmoqdaki, bu borada atoqli ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniyning ham o'ziga xos o'rni va salmoqli ahamiyati mavjud.

Jamiyatning har tomonlama ravnaqini ziyoli va etuk tarbiyalı xalqda ko'ra olgan alloma butun hayotiy va ijodiy faoliyatini ana shu ezgu g'oyasini amalga oshirishga bag'ishladi. U o'zining insonparvarlik, ma'rifatsevarlik g'oyalalariga sodiq qolib, bor bilim va kuchini millatning ma'naviy-ma'rifiy kamolotini rivojlantirishga bag'ishladi. O'z hisobidan məktəb, nashriyot va teatr xonalar, teatr truppaları tashkil etgani, ularning faoliyatini moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlab turgani Abdulla Avloniy chinakam ma'rifat rahnamosi bo'lganining yorqin dalilidir.

Ulug' mutafakkir, mahoratlari pedagog, iste'dodli adib Abdulla Avloniy merosi ijtimoiy-pedagogik jihatdan nihoyatda yuksak ahamiyat kasb etadi. Abdulla Avloniy jadid ma'rifatidan bahramand holda o'z faoliyatida ushbu ulug'vor g'oyalarni chuqur targ'ib etishga harakat qildi, yoshlarni ma'nан barkamol etib tarbiyalash, milliy qadriyat va an'analarni asrab-avaylashga qaratilgan nodir asarlar yaratib qoldirdi.

Shu ma'noda, o'zbek adabiyotini, nashriyotini, teatr san'atini, məktəb-maorifini, pedagogikasini shakllantirish va rivojlantirish yo'lida serqirra faoliyat olib borgan allomaning boy ilmiy-ijodiy xazinasini, pedagogik qarashlarini o'rganish va targ'ib qilish, ta'lif-tarbiya jarayonlarida adib ma'naviy merosidan foydalanishning samarali texnologiyalarini tadqiq etish va amaliyotga tatbiq qilish hamisha dolzarb va ahamiyatga egadir.

So'nggi yillarda mamlakatimiz hayotining turli jabhalarida, rivojlanishning turli sohalarida o'tmish, bugun va kelajak uyg'unligida yangicha ruhdagi o'sish-o'zgarishlar sodir bo'lmoida. Ilm-fan, ta'lif-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat masalalari yanada dolzarb mohiyat kasb etib, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bu jarayondagi ishlarni

sifat va samara jihatdan yangi bosqichga ko'tarishda, aholi va yoshlarni turli axborot xurujlaridan himoya qilib, mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, tafakkur olamini rivojlantirishda milliy-ma'naviy qadriyatlar, buyuk ajdodlarimiz, allomalarimiz merosi boy va ta'sirchan didaktik manba hisoblanadi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlis Parlamentiga yo'llagan murojaatnomasida ham bu borada alohida ta'kidlab o'tdi: «Biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu beba ho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab etadi»

Avloniy butun hayoti davomida jamiyat ma'rifatini yuksaltirish yo'lida fidokorlik ko'rsatdi. Bu borada asosan quyidagi 4 yo'nalishda sermahsul faoliyat olib bordi:

1. Maktab-maorif («usuli jadid» maktablari, zamonaiy darsliklar).
2. Ilmiy-badiiy ijod (ilmiy, adabiy asarlar).
3. Teatr san'ati (teatr truppalari, sahna asarları).
4. Nashriyot-matbaa (nashriyot-nashrlar, publitsistika).

Iste'dodli mutafakkir qaysi sohada faoliyat olib bormasin, asosiy maqsadini xalqni ma'rifatli qilish, ma'naviy dunyosini boyitishga qaratdi. Pedagogik va teatrchilik faoliyatida bu borada qanchalik muhim amaliy ishlarni olib borgan bo'lsa, adabiy ijod, publitsistikada ham shu darajada faol va samarali mehnat qildi. Alloma o'zi ochgan mакtablar uchun darsliklar, teatrlar uchun sahna asarları yaratish bilan bir qatorda adabiy jarayonlarda ham faol ishtirok etdi, she'riyatda mahsuldor ijod qilishga erishdi, adib sifatida ham keng shuhrat qozona oldi.

Kuzatishlar ko'rsatadiki, bugungi kunda respublikamiz ta'lim muassasalarida interfaol ta'limni tashkil etishda quyidagi eng ommaviy texnologiyalar faol qo'llanilmoqda:

Interfaol metodlar: «Keys-stadi» (yoki «O'quv keyslari»), «Blits-so'rov», «Modellashtirish», «Ijodiy ish», «Loyiha», «Munosabat», «Reja», «Suhbat» va b. Strategiyalar: «Aqliy hujum», «Bumerang», «Galereya», «Zig-zag», «Zinama-zina», «Muzyorar», «Rotatsiya», «T-jadval», «Yumaloqlangan qor» va h.k.

Grafik organayzerlar: «Baliq skeleti», «BBB», «Konseptual jadval», «Venn diagrammasi», «Insert», «Klaster», «Nima uchun?», «Qanday?» va b. Interfaol ta'lim bevosita interfaol metodlari yordamida tashkil etiladi. Modulli-kredit tizimi zamonaviy ta'limning eng takomillashgan shakli sanaladi.

Bulardan tashqari axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta'limiy dasturlar imkoniyatlaridan ham foydalanildi. Masalan, «Kahoot» dasturi asosida dars jarayonida talabalar bilimini mustahkamlash uchun Abdulla Avloniy ijodi va pedagogik qarashlari to'g'risida tayyorlangan test butun guruh bilan birgalikda onlayn bajarildi. Mazkur texnologiyadan foydalanish bosqichlari quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Google qidiruv tizimidan Create kahoot dasturiga kirib, akkaunt yaratiladi.

2. Test yaratish bo'limiga kirib, test kiritib chiqiladi (test yaratishda javoblar variantlari rasmi, matnli, ha yoki yo'q tarzida 4-6 tagacha berish mumkin, test kiritishda javob belgilab chiqiladi). Saqlash Save tugmasi bosiladi.

3. Bu test kutubxona (Library) bo'limida ko'rindi.

4. Ekranda start tugmasi bosiladi va o'yining pin kodi chiqadi.

5. Talabalar shaxsiy kompyuter yoki smartfon orqali kahoot.it saytiga kirib, Came PIN joyiga 7 ta raqamdan iborat pin kod kiritadi.

6. Talabalar o'z ism-familiyalarini kiritadilar.

7. Kiritilgan ism-familiyalar o'qituvchi oynasida ko'rindi.

8. Barcha talabalar kirib o'lgandan so'ng start tugmasi bosiladi. O'yin boshlanadi.

9. Ekranda test savollari ko'rindi, talabalar to'g'ri javobni belgilaydi. Har bir savolda tugma bosilganda ball oshib boradi. Natija har bir savoldan keyin ekranda ko'rindi.

10. Next tugmasi bosilib, keyingi savolga o'tiladi.

11. Test yakunida talabalar bahosi aniqlanadi.

Avloniy asarlarini o'rganish davomida bu kabi texnologiyalardan foydalanish bir darsda butun sinf o'quvchilari faolligi, ularning o'z harakati, bilimiga munosib baholanishini ta'minlash bilan bir qatorda, ularni yanada tezkor va hozirjavob bo'lishga, ijodiy fikrlashlarini rivojlantirishga undaydi. Eng muhimi, o'zi sevgan adabiy qahramonga tavsif berish jarayonlari o'quvchi-talaba shaxsida ushbu qahramonga tegishli ijobiy fazilatlarni shakllantirish, axloqiy sifatlarni tarbiyalash imkoniyatini kuchaytiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Avloniy A. Tanlangan asarlar. // Turkiy guliston yoxud axloq. –T, 1995.

2. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 2-jild: Pandlar, ibratlar, hikoyatlar, nabiylar hayoti, dramalar, maqolalar, sayohat xotiralari. Toshkent, «Ma'naviyat», 2006.

3.Pardayeva K. Abdulla Avloniy axloqiy-tarbiyaviy g'oyalarining ustuvor jihatlari. Innovative achievements in science 2021: a collection scientific works of the international scientific conference (9th november, 2021) – chelyabinsk, russia : "cess", 2021. part 3, issue 1 – 88 p.

4.Pardayeva K. Improvement of students' enlightening ideas through the works of Abdullah Avloni . European international journal of multidisciplinary research and management studies issn: 2750-8587 doi:

5.Pardayeva K.Educational significance of the works of Abdulla Avloni European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 ISSN 2056-5852

6.Pardayeva K. Umumiy o'rta ta'lilda Abdulla Avloniy ijodini o'rganishning ma'rifiyestetik ahamiyati. Xalq ta'limi jurnali.3-son (may-iyun) 2022.Toshkent

7. Muxammadiyeva Sayyora Valijonovna .Ahmad Yassaviyning ta'limiy axloqiy qarashlari. 6 noyabr 2023 y.

8. Muxammadiyeva Sayyora Valijonovna . Xoja Ahmad Yassaviy komil inson va uning shakllanishiga oid qarashlari. 6 noyabr 2023 y.